



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARGA

IMKONIYATLAR YARATISH

Setimbetova Sojida Komoraddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti (TDTrU), «Transport logistikasi

(temir yoʻl transporti)» mutaxassislik magistranti. Toshkent sh.,

O'zbekiston Respublikasi

E-mail: setimbetova0115@gmail.com

Tel:+998(94) 710-01-15

Annotatsiya:

Ushbu maqolada davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda bir qancha takliflar berilgan bo'lib, bu takliflar orqali talabalarga qulaylik va imkoniyatlar yaratiladi.

Kalit so'zlar: davlat oliy ta'lim muassasalari mutaxassislik fanlari, ijtimoiy fanlar, Westminster, MDIS.

СОЗДАНИЕ УСЛОВИЙ ДЛЯ СТУДЕНТОВ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ВУЗАХ

Аннотация:

В данной статье дан ряд предложений по повышению качества образования в государственных высших учебных заведениях, за счет которых создаются удобства и возможности для студентов.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

Ключевые слова: государственные высшие учебные заведения, профильные предметы, социальные науки, Вестминстер, MDIS.

CREATING FACILITIES FOR STUDENTS IN PUBLIC HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: In this article, a number of proposals for improving the quality of education in state higher educational institutions are given, and through these proposals, convenience and opportunities are created for students.

Key words: public higher education institutions specialized subjects, social sciences, Westminster, MDIS.

Davlat oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim dasturi va o'qitish metodikasiga o'zgartirishlar kiritish dolzarb masalalardan sanaladi. Chunki hozirgi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ko'pgina talabalar uchun ta'lim tizimida bir qator yangi dasturlar ishlab chiqish ushbu soha rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Talabalarning fanlarni, dars vaqtini, fan o'qituvchisini mustaqil tanlash imkoniyatining yaratilishi ular tomonidan bilim va ko'nikmalarning yanada yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Qat'iy belgilangan guruh darslarida talabaning ma'lum bir sabablar bilan qoldirilgan darslarni qayta o'zlashtira olmasligi ushbu darslar bo'yicha talabalarda mavzu haqida bo'shliq paydo bo'lishi kabilar kuzatiladi. Bunday muammolarning yechimi sifatida ko'plab davlat oliy ta'lim muassasalarida Westminster, MDIS kabi chet el darajasidagi oliy o'quv yurtlarining muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

va ijobiy ko'rsatkichlarga erishayotgan o'quv tizimlarining tajribalaridan quyidagilarni taklif etish mumkin:

- dars mashg'ulotlari boshlanishidan oldin talabalarga belgilangan muddatlarda (1-2 hafta) fan o'qituvchilarini tanlashlari uchun sinov darslari tashkil qilish;

- o'ziga yoqqan mutaxassislik fanlarni tanlash imkoniyatini yaratish;

- kunning belgilangan muddatida talabaning vaqti hisobga olingan holda darsga qatnashishini ta'minlash;

- darsdan keyin o'zlashtirishi qiyin bo'lgan fanlardan bepul to'garaklarga qatnashish orqali o'z bilimlarini oshirishga yordamlashish;

- ta'lim dasturidagi mutaxassislikka oid bo'lmagan fanlarni qisqartirish orqali mutaxassislik fanlariga e'tiborni kuchaytirish.

Dars mashg'ulotlari boshlanishidan oldin talabalarga sinov muddatida(1-2 hafta) fan o'qituvchilarini tanlashlari uchun sinov darslari tashkil qilishda talabalar o'zlariga maqbul bo'lgan o'qituvchilarni tanlashadi. Bunda darslarga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi. Chunki talaba o'ziga yoqqan metodlar orqali dars o'tish uslubiga ega bo'lgan o'qituvchini tanlaydi va o'z-o'zidan dars mashg'ulotlariga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi.

Talabaning qiziqishlariga tayangan holda mutaxassislik fanlarini tanlash imkoniyatini yaratish o'z navbatida o'zlashtirish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bepul to'garaklar tashkil qilish orqali talabaning moliyaviy jihatlarini inobatga olgan holda uzrli sabablarga ko'ra qoldirilgan dars mashg'ulotlarini qayta o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

Ta'lim dasturidagi sohaga oid asosiy fanlarni qoldirish orqali talabalar diqqatini faqat o'z mutaxassisliklariga qaratishni nazarda tutadi. Bu orqali talaba o'quv yili davomida o'z mutaxassisligi bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar qabul qilinishiga imkon yaratiladi.

Agar Westminster universiteti o'quv fanlariga nazar solinsa, semestr davomida talabalarga faqat 4 ta mutaxassislik fanidan ta'lim beriladi. Davlat oliy ta'lim muassasalarida esa 10 ta o'quv fani (nomutaxassislik fanlari bilan birgalikda)ni tashkil qiladi. Chet tili fanlari: ingliz tili, rus tilining o'rgatilishi davom qilinishini ta'kidlash lozim. Chunki chet tilini bilish xorijiy adabiyotlardan keng qamrovli foydalanish imkoniyatini beradi. Shu tufayli talabalar uchun bepul chet tili o'quv kurslarining ochilishi lozimligini ham inobatga olish tavsiya qilinadi.

Westminster universitetida talabalarga kunning bo'sh vaqtlariga qarab darsga qatnashish imkoniyati yaratilgan. Masalan, talabaning ertalab soat 8⁰⁰ da "Management" fanidan darsi bor. Ma'lum bir sabablarga ko'ra talaba ushbu vaqtda belgilangan darsga qatnasha olmadi. Ushbu fandan soat 10⁰⁰, 14⁰⁰, 16⁰⁰, 18⁰⁰ da ham dars tashkil qilingan bo'lib, talaba shu dars mash'ulotlaridan xohlaganiga qatnasha oladi. Davlat oliy ta'lim muassasalarida ham xuddi shu tizimni tashkil qilish orqali talabalarga darslarda to'liq qatnashishda katta imkoniyat berilishi mumkin.

Xulosa. Ta'lim tizimida xalqaro standartlarga asoslangan ta'lim dasturini tashkil qilish ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishga, bugungi kunda yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga yechim topishga yordam beradi. Taklif qilingan tavsiyalar amalga oshirilsa yuqorida ko'rsatilgan muammolar o'z yechimini topishi mumkin. Ushbu maqola ta'lim tizimini takomillashtirish uchun ma'lum



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

darajada xizmat qilishi bilan bir qatorda talabalarga keng qamrovli imkoniyatlar yaratiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-4958 sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5313-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 maydagi «Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3755-sonli Qarori.
6. <https://www.wiut.uz/>